



BUYRUQ

2025-yil 12-sentabr

TOSHKENT

438-H-son

"Yangi tahrirdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5729-son Farmoni ijrosini ta'minlash, 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son Qarori bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy Nizom talablarini amalga oshirish hamda Jamiyatning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyati "ISO 37001 korrupsiyaga qarshi kurashishning menejment tizimi" xalqaro standartiga muvofiqligini ta'minlash hamda 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Jamiyatning ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha quyidagi asosiy ichki idoraviy hujjatlar:

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti 1-ilovaga muvofiq;

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom 2-ilovaga muvofiq;

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'grisida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti 3-ilovaga muvofiq.

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyati xodimlarinig korrupsiyaga qarshi kurashish va odob-axloq sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma 4-ilovaga muvofiq;

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma 5-ilovaga muvofiq;

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma 6-ilovaga muvofiq;

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatida Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti 7-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati tog‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha Nizom 8-ilovaga muvofiq;

“O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyatida xodimlarning korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish bo‘yicha Reglament 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasidagi yuridik maqomga ega bo‘lgan tashkilotlar rahbarlari:

o‘z tashkilotlarida “korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyatiga mas‘ul” nomzod xodimlar (yuridik, iqtisod, soliq yoki moliya yo‘nalishida oliy ma‘lumotga ega)ni lavozimga tayinlanishi Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi bilan kelishilishi (nomzodning F.I.Sh, pasport nusxasi, shaxsiy ma‘lumotnomasini taqdim etgan holda) tartibi o‘rnatilsin;

10 kun muddatda Jamiyatning yangi tahrirdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlari asosida o‘z tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini hamda faoliyatga tatbiq qilinishini ta‘minlasinlar.

3. Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi barcha departament, boshqarma, aksiyadorlik va mas‘uliyati cheklangan jamiyatlar, shuningdek, boshqa tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari:

Jamiyatning yangi tahrirdagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlari ijro uchun qabul qilinsin;

o‘z tarkibiy bo‘linmalarida “korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyatiga mas‘ul” yoki uning lavozim vazifalari yuklatiladigan xodimlarni mazkur buyruqning 2-bandi birinchi qismida belgilangan tartibda lavozimga tayinlanishini ta‘minlansinlar;

Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasiga har chorakning keyingi oyining 5-sanasiga qadar hisobotlarni to‘liq, sifatli, to‘g‘ri va tasdiqlangan holatda kechiktrmasdan taqdim etilishi ta‘minlansin.

4. Jamiyat boshqaruv raisining 2022-yil 4-iyuldagi “Jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha asosiy ichki idoraviy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 647-N-sonli buyrug‘i hamda 2024-yil 26-yanvardagi "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti"ni tasdiqlash to‘g‘risida 56-N sonli buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Boshqaruv raisi huzuridagi kotibiyat, Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi bilan birga ushbu buyruq va uning ilovalarini elektron shaklda Jamiyatning tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlarga yetkazilishini ta‘minlasin.

6. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



Z.G‘. Narzullayev